O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI

YURTIMIZGA XUSH KELDING,

QISH!

Xazonlarni sochib yurgan kuz,
Bog'lar ichra hukmron erdi.
Bir kechada sezdirmay unsiz,
O'rnin qishga bo'shatib berdi.

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2008-yil 1-dekabr N:48 (66693)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan ISSN – 2010-6092

Maktablarda fan olimpiadalari bo'lib o'tmoqda

Vodiyga safar qilar ekanmiz, istiqlolning istiqbolli farzandlarining bugungi kunda erishayotgan yutuqlaridan zavq-u shavqqa to'ldik

KO'RGAZMA DAVOM ETADI

Qanday ko'rgazma, biz ham boramiz, deysizmi? Respublika o'quvchilar saroyida kitob ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda. Unda siz uchun rang-barang kitob-u darsliklarni nashr etayotgan «O'zbekiston» va «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uylarining taqdimotlari ham bo'lib o'tdi. Ayniqsa, yozuvchi va shoirlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuv o'quvchilarni quvontirdi. Ushbu kitob bayrami davom etmoqda, siz ham tashrif buyuring. Ko'rgazma haqidagi tengdoshlaringizni fikrlarini esa keyingi sonda o'qiysiz.

Uy vazifasini bajarasizmi? 3-bet

Oltinko'lning «oltin»lari 5-bet

Shifo topgan ilon 6-bet

Tengdoshlarim hayotiga oid yangiliklardan boxabar bo'laman, sevimli adiblarimizning yangi asarlarini birinchilardan bo'lib o'qiyman, «Quvnoq tanaffus»dagi hangomalarni o'qib, vaqtimni chog' o'tkazaman, o'z ijodimni olisdagi do'stlarimga yetkazaman

DESANGIZ,

TEZROQ «TONG YULDUZI» GAZETASIGA OBUNA BO'LING!

Nashr ko'rsatkichimiz: 198

O'rmondagi har bir qushning o'z qo'shig'i bor. Nega shundayligini bilasizmi?

YAXSHI NOM QOLDIRING!

Bir kuni dugonalarim bilan «Tong yulduzi» gazetasidagi «Qizlarning qattiq kulgani uyat» nomli maqolani o'qib mulohaza qildik. Bizning o'qishimizda ham shunday qizlar borligi bizni o'ylantirdi. «Nega ular odobli, namunali qizlarni ko'rib, xulosa chiqarishmas ekan-a?» desam, dugonam gapimga kuldi. Uning fikricha, o'sha qizlar ibrat olish o'rniga, aksincha, sodda, iboli qizlarning ustidan kulishar emish. Shunday kunlarning birida darsdan qaytar ekanman, xunuk bir voqeaning guvohi bo'ldim.

– Avtobusga chiqib, o'rindiqqa bemalol joylashib olgan uch-to'rtta o'quvchi-qiz atrofdagilarga rosa tomosha ko'rsatishayotgan edi. Ular uyali telefonlaridagi allaqanday g'arb musiqasini balandlatib qo'yib, hammaning asabiga tega boshlashdi. Shunda chiptachi ayol ularga tanbeh berdi:

– Singlim, ashulaning ovozini pastroq qiling. Jamoat joyidasiz-ku...

Qizlardan biri esa uni «boplab» qo'ymoqchi bo'lib, gap qaytara boshladi:

– Nega endi sizning singlingiz bo'lar ekanman. Meni sizga o'xshab «ko'chada qolgan» konduktorlardan opam yo'q.

Uning gapiga dugonalari hoholab kulishdi. Men esa: «Eh, qizlarjon, nahot o'z onangiz tengi ayolga shu gaplarni aytishga botina oldingiz?» degim keldi. Shunda bir yigit ham shu o'yda turgan ekanmi, ularni uyaltirdi. Uning gaplariga qizlar indamay qolishdi.

Qiz bolaning odob-axloqi yetti avlodning or-nomusini belgilab beradi, degan gap bor. Aziz qizlarjon, biz har doim ham avlodlarga munosib bo'la olyapmizmi? Bu haqda o'ylab ko'ring. O'zingizni tashqaridan atrofdagilarning nigohi bilan kuzating. Zero, sizning avlodingiz haqida insonlar hech qachon fikrga xayolga borishmasin.

Dilafro'z XUDOYBERDIYEVA

G'URUR BILAN O'QIDIK

Maktabimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asariga bag'ishlab tadbir o'tkazildi. Unda ushbu asar, uning ahamiyati xususida so'z yuritildi.



Uni o'qib-o'rganish, mazmun mohiyati bilan tanishish jarayonida xalqimiz qadriyatlari, hamyurtlarimizning qadimdan jamoa, mahalla bo'lib hayot kechirganliklari, kishilarning mehr-oqibatli bo'lib yashaganliklari haqida yana-da kengroq ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ma'naviyatimizning hayotimizda yengilmas kuch ekanligiga ishonch hosil qildik. Asarda tariximiz, ma'naviy qadriyatlarimiz cheksiz mehr-muhabbat bilan tasvirlangan.

Allomalarimiz Mirzo Ulug'bekka Litvada, Alisher Navoiyga Moskva, Tokio, Boku shaharlarida, Ahmad Farg'oniyga Qohira shahrida haykallar qo'yilganligi haqidagi satrlarni quvonch va g'urur bilan o'qidik. Allomalar va «Alpomish» dostoni haqidagi yurtboshimizning fikrlari bizda katta taassurot qoldirdi. Taniqli insonlar Yahyo G'ulomov, Ozod Sharofuddinov to'g'risida aytilgan gaplarni maroq bilan o'qidik.

Umuman olganda, ushbu asar ma'naviyatimizni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Mushtariy MAMAJONOVA,
poytaxtdagi 15-o'rta maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi

SUVSIZLIKNI TASAVVUR QILING!..

Bilasizmi, men bir tomchi suv sahrodagi yo'lovchini o'limdan saqlab qolgani haqidagi ertakni eshitganman.



Suv chindan ham mo'jizalar yaratadi. Ayniqsa, gullarning suvdan yayrab bosh ko'tarishlari menga mo'jizadek tuyuladi. Maktabda ko'pincha qo'lini yuvib, jo'mrakni yopmay ketadigan tengdoshlarimni ko'raman. Ularga «Suvni nega isrof qilasiz?» degim keladi. Gazetadagi insholar tanlovi ana shu gaplarimizni aytishga imkon berdi. Suvning har bir tomchisi oltinga teng, shuning uchun suvni asrashimiz kerak. Suvsizlikni tasavvur qiling... Borliq obi hayot bilan go'zalligini aslo unutmang.

Diyora JO'RAYEVA,
Yunusobod tumanidagi
260-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi

«TONG YULDUZI»GA O'XSHAYDI

Ona tili fani oyligi munosabati bilan biz turli devoriy gazetalar tayyorlamoqdamiz. Bu devoriy gazetada o'zbek tili tarixi, qoidalari, krossvordlar, turli o'yinlar-u reburslar berilmoqda. Maktabimizdagi barcha o'quvchilar tanaffusda topshiriqlarni yechishga qiziqishadi.

Bu fan oyligida shoir-u yozuvchilar bilan uchrashuvlar ham o'tkazilmoqda. Muzeylarga sayohatlarni aytmaysizmi? Shuningdek, men «Eng chiroyli yozuv egasi» tanlovida qatnashdim. Endi juda g'olib bo'lgim kelyapti. Chunki oylik so'nggida «Fan oyligida eng faol ishtirok etgan sinf» yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda mening sinfim yutuqni qo'lga kiritishini istayman. Maktabimiz rahbari g'oliblar-u faollarni albatta taqdirlar ekanlar. Eng zo'r gazeta ham oy so'nggida tashkil etiladi. U «Tabrik va taklif» deb nomlanib, unda biz o'qituvchilarimizni tabriklab, o'z taklifimizni yozamiz. O'quvchilarning o'zlari ham dars o'tib ko'rishlari haqidagi taklif ham bo'lsa, ne ajab! Bizning devoriy gazetalarimiz ham xuddi «Tong yulduzi»ga o'xshasa, deyman.

Humoyun RAJABOV

QUYOSHIM – SENSAN QOMUSIM!

Yaqinda barchamiz Konstitutsiyaning o'n besh yilligini nishonlaymiz. Maktabimizda ham bu bayramga tayyorgarlik ishlari ketmoqda. Bilasizmi, undagi bolalar huquqlariga oid moddalarni biz o'quvchilar o'qib olishimiz darkor. Shuning uchun men bosh qomusimiz bilan yaqindan tanishib chiqib, she'r ham yozdim. Gazetaga ham ushbu she'rimni yubormoqdaman.

Azal o'tmishimiz senda mujassam,
Qonun-qoidalar bo'ldi jamuljam.
Sen borsan, vatanim sira bo'lmas kam,
Eng porloq quyoshim sensan qomusim!

Dilafro'z QO'SHOQOVA,
Samarqand viloyati,
Qo'shrabot tumanidagi 55-maktabning 8-sinf o'quvchisi

S.T.KOSTENKO

SAXIY

O'rmondagi har bir qushning o'z qo'shig'i bor. Nega shundayligini bilasizmi?

Qadim o'tgan zamonda o'rmon nihoyatda tinch bo'lib, u vaqtda qushlar hali sayrashni bilishmas ekan. Bir kuni kimdir o'rmonga kelib, qushlar orasida qo'shiq tarqata boshlabdi. Qushlar shovqin ko'tarishibdi. Har bir qush eng chiroyli qo'shiqni olishga harakat qilar emish.

– Menga chiroyli qo'shiq bering, – deb so'rabdi bir qushcha.

– Mengayam, – debdi boshqasi.

O'rmondagi qushlarning hammasi qo'shiq olish uchun uchib kela boshlabdi. Faqat kulrang bulbulgina na'matak butasiga qo'ngancha jimgina o'tiraveribdi. «Mengayam biron qo'shiq qoldirishar», deb o'ylabdi u.

O'sha kuni qizilishtonning o'rmonda ishi juda ko'p ekan, shuning uchun ham kechikib kelibdi va qo'shiq so'rabdi.

– Menga ham chiroyli qo'shiq bering, iltimos, – debdi u,–

DOLLARNING PAYDO BO'LISHI



Bilasizmi, dollar Amerika bilan tengdosh ekan. Chunki XVIII asrdayoq yevropalik muhojirlar mayda chaqalarni dollar deb atashardi. Uning rasmiy tug'ilgan kuni esa 1786-yilning 6-iyulidir. Shu kun u AQSHning pul birligi deb e'lon qilingan. Aslida birinchi dollar 1519-yilda Germaniyada kumush tanga ko'rinishida muomalaga kiritilgan bo'lib, nemislar uni «taler» deb ataganlar. Keyinchalik Germaniyada markalar joriy qilingan vaqtda Amerikada taler mashhur bo'lgan edi. Yer kurrasining turli nuqtalaridan kelgan muhojirlarni birlashtirish uchun qudratli g'oya va ramz zarur edi. Dollar shu vazifani bajardi.

Kamola NOSIROVA,
Namangan viloyati

UY VAZIFASINI BAJARASIZMI?

Bu savolimiz erinchoq, o'yinqaroq bolalarga biroz yoqmayotgandir?! Ammo a'lochi o'quvchilar: «Albatta, axir maktabda o'tilayotgan darslarni uyda takrorlab, bilimimizni mustahkamlamasak, qanday qilib bilimdon bo'lamiz», deyishayotgani aniq. To'g'ri-da, uy vazifasini bajarmasangiz, «2» bahoingiz ham ko'payib boraveradi.

ZUHRA olgan surat

O'quvchi deganda hammamiz kechqurun uyida dadasi olib bergan chiroylikkina, tartibli dars stoliga o'tirib, ertangi darslarini bajarayotgan o'quvchini ko'z oldimizga keltiramiz. U uy vazifalarini bajarayotganida, o'qituvchisi bugun tushuntirib bergan mavzuni takrorlaydi, so'ng, uni qanchalik o'zlashtirganini bilish uchun mashqlar, misol-u masalalarni yechib ko'radi. Kerak bo'lsa, aka-opalaridan yordam so'raydi. Va bir soat ichida yaxshi bola bo'lib, mamnun holatda ertangi darsning kitob-daftarlarini sumkasiga joylab qo'yadi. Ana endi xohlasa televizor ko'rishi yoki biroz ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynashi mumkin. Hech kim uni hadeb «Darsingni qildingmi?» deb bezovta ham qilmaydi. Ha, aytgancha, ba'zi quloqsiz bolalar borki, ularning onalari qayta-qayta uy vazifasini bajarishini takrorlab charchaydilar. Lekin tengdoshingiz Abdullo Raupov: «Yuring, darslarimni birga qilaylik, tezroq bo'ling», deya oyijonisini holi-joniga qo'ymas emish. U Sobir Rahimov tumanidagi 261-maktabning 1-«A» sinf o'quvchisi. Abdulloning aytishicha, har doim barcha fanlardan berilgan uy vazifalarini vaqtida bajarib, uyga vazifa daftariga bexato ko'chirib qo'yar ekan. Darsga tayyor bo'lib, har kuni javob berib, besh olgisi kelishini aytmaysizmi:

– Men hecham maktabga dars tayyorlamay bormaganman. Kechqurun darslarimni bajarmay uxlab ham qolmayman. Faqat ustozim ba'zan mening javob berishimga ruxsat bermaydilar. «Seni uy vazifasini bajarganingni yaxshi bilaman, boshqa sinfdoshlaring javob berishsin», deydilar. Mening esa javob bergim kelaveradi.

Sizning sinfingizda ham shunday tirishqoq o'quvchilar ko'pmi yoki darslarni bajarmay keladiganlarmi? Bu savolga ba'zi tengdoshlaringizdan olgan javoblarimizga ko'ra, bir sinfdagi o'ntacha o'quvchini doim darsga tayyor, ba'zilarini o'rtog'idan ko'chirib olgan yoki tanaffusda amallab uy vazifasini bajargan-u, yana o'ndan ortig'ini umuman vazifalarni hech qachon tayyorlamaydiganlarga bo'lish mumkin ekan. Yana ma'lum bo'lishicha, yuqori sinfga o'tgani sari o'quvchida uy vazifasini bajarishga bo'lgan ishtiyoqi so'nib borar emish. Lekin siz o'ylab ko'ring: nahot o'smirlikdagi bilim olishdek eng muhim vazifangizni bajarmaslikka, darslarni tayyorlamay, maktabga borishga uyalmaysiz? Nima uchun o'qituvchingiz soatlab bergan bilimini yaxshi javobingiz bilan qaytargingiz, ularni xursand qilgingiz kelmaydi? Ota-onangizni-chi?

Sayyora JO'RAYEVA

«Katta bobo» bekati

SALOMLASHISH – ZIYNAT



Qadrli bolalar!

Bekatdagi bugungi suhbatimiz mavzusi har biringiz uchun muhim va zarur bo'lgan salomlashish xususida bo'lishga nima deysiz? Balki bu borada o'z fikringiz ham bordir. Haya, salomlashish uchun har birimiz doimo tayyor turmog'imiz darkor. Chunki salomalikka o'rgangan odam hech qachon dakki eshitmaydi, yoshi ulug'larning duosiga sazovor bo'ladi.

Aziz o'g'il-qizlarim, salomlashish uchun nimalarga e'tibor berishingiz borasida fikr yuritar ekanman, eng avvalo, ota-onangizga, do'st-birodarlaringizga, ayniqsa, yoshi ulug'larga birinchi bo'lib salom berishni hech qachon unutmaslikni maslahat berardim. Bu fazilat kunlik yurish-turish qoidasiga aylansin. Shundagina sizni odobli, atrofdagilar hurmat qiladigan, barchaning izzatini o'z o'rniga qo'yadigan, kelajakda har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishadigan shaxs sifatida tan olishlari mumkin.

«Assalomu alaykum» – qadimdan odamlar o'zaro uchrashganda, bir-birlariga aytadigan hikmatli so'zdir. Kishilar yuz ko'rishganda, samimiy ohangda shu jumlani takrorlab, bir-birlariga osoyishtalik, bexatarlik, sihat-salomatlik tilashi odat tusiga aylangan.

Odatda, birinchi bo'lib, yoshlar o'zidan kattalarga salom berishadi. O'z navbatida, ular salomga alik olib, yaxshi niyat bildirishadi. Aslini olib qaraganda, uchrashganda salomlashish yoshi va jinsidan qat'iy nazar o'zaro muomala munosabatning debosi hisoblanib, undan keyingi suhbatning iliq, samimiy, ochiq-oydin kechishini ta'minlaydi.

O'g'il-qizlarim, tongda uyqudan uyg'ongach, darhol yuz qo'lingizni yuvib, ota-onangizga, bobo-buvingizga, aka va opalaringizga salom bersangiz, qanday yaxshi! Ular bundan behad quvonishlari turgan gap.

Maktabga otlanib, ko'cha-ko'yda sizga ro'para kelgan yoshi ulug'larga salom berishning nimasi yomon? Ularning hurmatini qozonib, odobli bola ekanlikni namoyish etishdan ko'ra a'lo xulq bormi? Qolaversa, salomlashish uchun odam tanlash odobdan emas. «Men u kishini tanimayman, ertaga yana uchrashamizmi yoki yo'qmi, salom berishdan nima foyda» kabi bo'lmag'ur fikrlar bilan hurmat izhor qilishni kanda qilish aslo yaramaydi.

Maktabga kelgach, tengdoshlaringiz, ustozlaringiz bilan salomlashishda hikmat ko'p. Bu bilan diydorlashish kuchining behad qudratli ekanligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Bolajonlarim, salomlashish – ziynat ekanligini hech qachon unutmang. Uni bir bor kanda qilsangiz, dastlab biroz o'zingizni noqulay sezishingiz mumkindir, ammo bora-bora shunga o'rganib qolsangiz, undan yomoni yo'q. Bu komil inson bo'lishingizda kechirib bo'lmas holdir.

Islom USMONOV

QIZILISHTON

Qizilishton qo'shiqli bo'libdi. Uning qo'shig'i eng chiroyli va eng uzuni ekan. Qizilishton rahmat aytib endi uchib ketmoqchi bo'lgan ekan, bulbulni ko'rib qolibdi.

– Senga qanday qo'shiq tegdi? – deb so'rabdi u bulbuldan, – uni menga kuylab ber, iltimos...

–Unga qo'shiq qolmadi, – deyishibdi qushlar.– U hech narsa so'ramasdan, shu yerda jimgina turdi.

Qizilishton ko'ribdi-ki, bulbul qo'shiq ololmaganidan juda xafa emish. Shunda u o'zining qo'shig'ini –eng chiroyli va eng uzun qo'shiqni bulbulga hadya etibdi.

– Qo'shiq eshitgim kelganda, boshqa qushlarning sayrashiga quloq solaman, – debdi u.

Ingliz tilidan Malika TO'RAXONOVA tarjimasi

QIROL SHERNING VATANI



Yer yuzidagi jamiki sherlarning vatani Sharqiy va G'arbiy Afrika hisoblanar ekan. Bundan 100 ming yil avval hayvonlar qiroli sherning nasli Osiyo va Hindiston hududlariga tarqalgan. Aniqlanishicha, sherlar o'tgan asrda Yevropa va Osiyo mamlakatlarigacha borib yetgan. Ushbu ma'lumotlar Amerika olimi Uorren Jonsonning 357 ta sher DNKsi bo'yicha olib borgan tekshiruvlari asosida olindi.

Antunes et al., Plos Genetics 2008

Internet yangiliklari

QISHKI MAVSUMGA TAYYORGARLIK

Noyabr oyining dastlabki kunlarida qor yog'ib, havoning sovib ketishi barchani shoshirib qo'ydi. Janubiy Osetiyada ayrim maktablar hali qishki mavsumga tayyor emasligi katta muammoga aylandi. O'quvchilarning issiq sinflarda bilim olishlari uchun maktablarda isitish uskunalarini sozlash tezlashtirilmoqda.

ZEBO qiz tayyorladi

VODIY – MO'JIZALAR MAKONI

Jannatmakon diyorimizning har go'shasida kuz tarovati.

Bog'larda sokin qo'shiq shivirlaydi. Daraxt yaproqlari birin-ketin chirt-chirt uzilib, har soniyada yerga ohista tushaveradi. Oltin yaproqlarning tovlanishi yer yuzining mo'jizalar makoni ekanligini uqtirgandek, go'yo...

Bag'rida bog'lari, yo'llarida tog'lari bisyor vodiyga safar qilar ekanmiz, istiqlolning istiqbolli farzandlarining bugungi kunda erishayotgan yutuqlaridan zavq-u shavqqa to'ldik.

KOSONSOYDAGI «PARVOZ»

Andijonni sportchilar shahri, deyishadi. Namanganlik o'quvchilar ham bu borada bo'sh kelishmas ekan.

Kosonsoy tumanidagi 18- maktabda sportchi bolalar talaygina. Ular tuman, viloyat, shahar, hatto Respublika musobaqalarida faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'ldan berishmayapti.

Namangan viloyatida o'tgan yillar mobaynida 454 ta ta'lim muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. 5 ta yangi maktab qurildi, 129 ta maktablar kapital rekonstruksiya qilindi. 249 ta maktablar kapital va 71 ta maktablar joriy ta'mirlandi.

Yaqinda maktabning «Parvoz» jamoasi «Quvnoq startlar» televizion sport musobaqalarining Respublika bosqichida g'olib bo'ldilar.

Nafaqat «Parvoz»chilar, balki Uchqo'rg'on tumanidagi 1-maktabning «Umid», Uychi tumanidagi 35-maktabning «Humo» jamoalari ham o'z mahoratlarini ko'rsatishdi.

BAYRAMONA TUS OLDI

Kitobdan-da yaqin do'st yo'q. Bu gapni takror va takror aytamiz. To'g'ri-da, siz kitobga mehr bersangiz, kitob sizga yana-da qadrdonlashib boradi. Bilmaganingizni o'rganasiz, bilganlaringizni o'rgatasiz.

Yaqinda vodiyda kitob bayrami bo'lib o'tdi. «2009-2010-o'quv yiliga umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan darsliklar va o'quv uslubiy qo'llanmalarning ixtisoslashtirilgan ko'rgazma-yarmarkasi»da vodiylik maktab o'quvchilari, o'qituvchilari ishtirok etishdi. Shuningdek, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining boshqarma boshlig'i O'tkir Zokirov, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri To'lqin Hayit, «G'afur G'ulom» nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi Bosh muharriri Muhammad Ismoil, «Cho'lpon» nomidagi NMIU Bosh muharriri o'rinbosari Shoyim Bo'tayev va ko'plab ijodkorlar, soha xodimlari qantashdilar.

O'quvchilar yangi darsliklar bilan tanishdilar, ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazdilar. Kitob yaratilishining mashaqqatli tomonlarini o'rgandilar.

Vodiyda bayramona tus olgan bu uchrashuvlar kitobxonlar qalbini zavqlantirdi. Bu esa kitobxonlar safi kengayishiga xizmat qilsa, ajabmas.

(Davomi 8-betda)

OLTINKO'LNING OLTIN LARI

«YULDUZ»LARI KO'P MASKAN

Oltinko'l tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri Anvarjon Nazarov:

– Tumanimizda 51 ta maktab bor. Unda 30323 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. O'quvchilarimiz qiziquvchan, intiluvchan. Ularning bilimdon va zukko bo'lishlarida, ilmga qiziqishlarida ustozlarimizning ham o'rni katta. O'quvchilarimiz fan olimpiadalarida hamisha oldinda yurishadi.

Oltinko'l muassasalarida bo'lganimizda, u yerdagi ibratli ishlardan quvondik.

Chindan ham Oltinko'lning «oltin»lari ko'p ekan. Bizning ularga havasimiz keldi.

– 45-maktab-internat bu yil Respublika miqyosida o'tkazilgan «Yil maktabi» ko'rik-tanlovida 2-o'rinni egalladi.

Maktab ostonasidan kirib borar ekanmiz, hovlining ozodaligi e'tiborimizni tortdi.

Ma'naviyat xonasida gazeta-jurnallar taxlamlaridan bildikki, o'quvchilar gazetxon ekan.

A'lochilaridan 9-sinf o'quvchisi Ravshan Nurmatov, 8-sinf o'quvchisi Abror Orifjonov, 6-sinf o'quvchisi Sarvar Ikromov, 6-sinf o'quvchisi Hilola Ibrohimova, 7-sinf o'quvchisi Odina To'xtasinova haqida ustozlari iliq fikrlar bildirdilar. Hattoki, ayrim o'quvchilarni maktabimiz yulduzlari deb tanishtirdilar.



Manzur TURSUNOV internatning 11-sinfida a'lo baholarga o'qimoqda.

Toshkent shahrida o'tkazilgan kimyo fanidan 42-Xalqaro Mendeleyev Olimpiadasida saralash bosqichida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi.

O'tinlar mo'l, endi ko'ngil to'q,
Xavotirga aslo o'rin yo'q

SHOIRNING YANGI SHE'RI

Bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevni she'rlarini barchamiz sevib o'qiymiz. Uning Vatan, tabiat manzaralari, ma'rifiy- ma'naviy mavzudagi har bir she'rida bir ma'no topamiz.

Baxshilla Ashurov «Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati» mavzuida ilmiy ish yoqladi. Unda shoirning bugungi kungacha yaratgan asarlari talqin etildi.

Tadqiqot materiallari o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratishda, o'quv-qo'llanmalar tayyorlashda, maktablarda ko'plab tadbirlar uyushtirishda keng foydalaniladi.

Yaqinda Namangan shahridagi 58-ixtisoslashtirilgan maktabda shoir bilan bo'lib o'tgan uchrashuv o'quvchilarga zavq ulashdi.

Uchrashuvda maktab o'quvchilari shoirning she'rlari asosida kichik sahna ko'rinishini namoyish etishdi. 4-sinf o'quvchilarining mehribon ustozi Rahmatoy Turopboyeva boshchiligida shoir she'rlariga chizilgan rasmlar, albomlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

O'z muxlislaridan quvongan shoir Tursunboy Adashboyev yangi she'rlaridan o'qib berdi.

MAKTABGA MEHMON KELDI

Bugun barchamiz quvnoq,
Dilda so'z doston keldi.
«Tong yulduzi»dek porloq,
Quyoshli osmon keldi.

Vatan bag'rida kezib,
Qancha gul xandon keldi.
Poytaxtdan mehrin yozib,
Maktabga mehmon keldi.

Andijon shahridagi 35-maktab o'quvchilari

«IKKINCHI UYIM»

– 27 yildan buyon shu maktabda faoliyat yuritganim bois, maktab ikkinchi uyimga aylanib qolgan, – deydi Andijon shahridagi 35-ixtisoslashgan maktab direktori Ra'no opa Mo'ydinova. – 1089 nafar o'quvchilarimizga 76-nafar o'qituvchi saboq berib kelmoqda. O'quvchilarimiz bilimdonliklari, iqtidorlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar.

Ra'no opaning o'quvchilariga bergan ta'rifiga maktabda bo'lib o'tgan uchrashuvda isbotini topdik. «Tong yulduzi» xodimlari savollariga maktab o'quvchilari hozirjavoblik bilan javob berib, o'z bilimdonliklarini namoyon etdilar. Buning evaziga topqir o'quvchilar sovg'alar bilan taqdirlandilar. 6-«V» sinf o'quvchilari orzulari haqida qiziqqanimizda, ular shunday deya javob berdilar:

KATTA BO'LSAM...



Humoyun DAVRONOV:

– Men prokuror bo'lmoqchiman. Chunki buvam menga ism qo'yayotganlarida katta bo'lganida aqlli, odobli, bilimli, halol inson bo'lsin, deb niyat qilgan ekanlar. Prokuror bo'lib, doimo adolatli hukm chiqarishni oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Go'zal ABDULLAYEVA:

– Katta bo'lsam, shifokor bo'laman. Bemorlarga muloyimlik bilan gapiraman. Ustozim Manzura opa Azimxo'jayevadek mehribon bo'lmoqchiman.

Shohruhbek SATTOROV:

– Qo'l jangiga qiziqqanim sababli, maktabdan tashqari Yoshlar markaziga borib, ushbu sport turi bilan shug'ullanaman. Ustozim Valiullo aka bir yildan buyon menga sport sirlarini o'rgatib kelmoqdalar. Orzuim – chempion bo'lish.

Abbosxon SHAMSUDDINOV:

– Men o'zbek tili bilan birga rus tili, ingliz tilini mukammal o'rganyapman.

Ustozim Barno opa Umrzoqova «Til bilgan – el biladi, shuning uchun chet tillarini ham o'rganing», deya bizni til o'rganishga chorlaydilar.

Mahliyo TO'XTASINOVA:

– Katta bo'lganimda, shifokor bo'lmoqchiman. Menimcha, har bir oilada bitta shifokor bo'lsa, ko'p kasalliklarning oldi olingan bo'lar edi.

Kamoliddin Toshpo'latov, Andijon viloyati, Baliqchi tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri:

– Tumanimizda 52 ta umumta'lim maktablari, 3 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat mavjud. Ularda 29486 nafar o'quvchilar saboq oladi. Ayni kunlarda barcha maktablarimizda fan oyliklari, fan olimpiadalari davom etmoqda. Bizning o'quvchilarimiz ham bilimli, iqtidorli. Ular qo'shni tuman, viloyat o'quvchilaridan sira qolishmaydi. Doimo izlanishda.

Ustoz-murabbiylarimiz ham o'z ish faoliyatlari, bilimlari bilan Respublika tadbirlarida munosib o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

Bir so'z bilan aytganda, tumanimiz o'quvchilari ilmga chanqoq, kitobxon, gazetxon. O'ylaymanki, 2009-yilda ham «Tong yulduzi» gazetasining muxlislari yana-da ko'payadi.

Farzandlarimizni yoshligidanoq odobli, aqlli, yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalash biz kattalarning oliy burchimizdir. Zero, «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir».

Qo'sh sahifani FERUZA, MA'MURA va GULYUZ tayyorladilar



QOMUSIM YURAKDA TOZA IYMONDIR

Baxtim qomusiga tashlayman nazar,
Xalqimning ertasi unda namoyon.
Yoshlar saodati, baxti, iqboli,
Mening haq-huquqim undadir bayon.
Qonunlar majmui – nurli kelajak,
Muqaddas kitobdir «Mustaqilnoma».
Bobolar orzusi ijobat bo'lib,
Nasib etdi bizga baxtli zamona.
Tuprog'ing ko'zlarga to'tiyo Vatan,
Qomusing yurakda eng toza imon.
Bayrog'ingni o'pib, sening sha'ningni
Muqaddas bilamiz, ona yurt, ishon!

VATAN

Vatan noming tilga olganda,
Yuraklarga to'lar iftixor.
Ona mehri, bobolar qadrin,
Ardoqladi bizning istiqlol.

Poydevorim, oltin ildizim,
Hayotimning ustuni Vatan.
Ko'zga surtay yo'lchi yulduzim,
Otam xoki yeringda Vatan.

Bobursohning dilda armoni,
Cho'lpon, Fitrat sog'inch yoshisan.
Baxt beshigi, tinchlik qo'rg'oni
Bolalik gul oshiyonim Vatan.

Zebunniso SHARIPOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi Hamza nomli 8-o'rta maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

KECHIR, ONA

Ko'zlaringdan marjon oqsa mo'ltirabman,
Erkaliklar ko'chasida tentirabman.
Hasratlarim senga yog'di, biroq, ona,
«Sening darding nima?» deya so'ramabman.

Betob bo'lsang, yoshlik qilib qaramabman,
O'zim o'ylab, dast koringga yaramabman.
G'avg'olarim senga sochdim, biroq, ona,
«Sening darding nima?» deya so'ramabman.

Yuzingdagi ajinlarni men chizganman,
Kiprigingga jolalarni men tizganman.
Qalbingdagi yaralaring tirnadim, lek,
«Sening darding nima?» deya so'ramabman.

Nodonligim, g'o'rligim-chun, kechir ona,
Sochlaringda qirovlar-chun, uzr ona.
Jannatdagi rayhon isi kelayotgan,
Poylaringni tavof qilsam, arzir, ona.

Mohichehra ESHMIRZAYEVA



BAHORDEK GO'ZALSAN

Bahor ayyomiday go'zalsan, ko'rkam,
Nurlarga belangan serquyosh o'lkam.
Tuproqlaring oltin, suvlaring kumush,
Qo'yningda yashnaydi farovon turmush.
Zilol chashmalaring, tog'laring go'zal,
Ko'm-ko'k adirlaring, bog'laring go'zal.
Har qaming, har toshing azizdir menga,
Chuchuk suvlaring ham lazizdir menga.
Bag'ringda erkalab o'stirding meni,
Shuning-chun dilimdan sevaman seni.
Mudom yuksalardi sen-la iftixor,
Ko'ngil bog'im ichra abadiy bahor.
Yashil daraxtlarda sayrashib qushlar,
Shoxdan-shoxga qo'nib meni olqishlar.
Oqishib, jildirab, jilg'a, irmoq, soy,
Hammasi olqishlab kasb etib chiroy.
Farzandlik his ila to'ymay boqaman,
Sevinch daryosida yayrab oqaman...

Kamola TEMIROVA

KUZ

G'ir-g'ir shamol yeladi,
Suvlar o'ynab ketadi.
Maktab, uylar atrofi,
Xazonlarga to'ladi.
Uydan chiqibdi o'g'il-qiz,
Maktab tomon keladi.
Yomg'ir yog'ar tomchilab
Bu hol kuzda bo'ladi.

UKAJONIM

Ukam kichik bo'lsa-da,
Juda o'tkir zehni bor.
Maktabga ketganimda,
Kutar meni intizor.
U bilan doim omad,
Sarig'voyim, Said Muhammad.

Farangiz SHARIPOVA

TONG

Tong otganda,
Ko'kda oftob yonadi.
Bolalar bilan birga
Qushlar ham uyg'onadi.

Tong otganda,
Nurlar sochilib kelar.
Salom berib, jilmayib,
Gullar ochilib kelar.

Tong otganda,
Qarang, shudring tushibdi.
Olma, anor pishibdi,
Boqqa chiroy qo'shibdi.

YOMG'IR

Yomg'ir yog'sa olamga,
Menga mazza, menga mazza.
Kamalak chiqqan damda
Menga mazza, menga mazza.

Ammo nega men bilan
Unamas o'ynagani?
Go'yo yig'laganga o'xshar,
Qarang, tomchilar qani?

OLMA

Qizil olma, qip-qizil olma,
Tovlanadi qo'lingda.
Bunday shirin olmani
Yeganmisan umringda?

Farangiz ISKANDAROVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 300-iqtidorli bolalar maktabining 3-sinf o'quvchisi

SHIFO TOPGAN ILON

(Hikoya)

O'sha paytlar qishloqda gaz yo'q edi. Shu sabab qish oylarida ko'mir issig'i tanani yayratib turardi. Bahorning iliq kunlari boshlanib, qishki kiyimlar yengillashib qolgan, daraxt barglarida kurtak ocha boshlagan paytlar. Tandirxonadagi yog'in-sochindan holi bo'lishi uchun g'aramlangan o'tinlar tugab, oxirgi tarashani o'choqqa tashlayotgan enam karavot tagidagi chirigan taxtalardan saralab, olib kelishimni buyurdilar. Hovlidagi har ikkala karavotlarning oyoq qismlari taxta bilan aylantirib o'ralib, yerto'la hosil qilingandi. Bu yerto'la hovliga taxlansa, ko'rkni buzadigan narsalar: mix yashig-u turli mehnat qurollari, kir tog'ora-yu taxta bo'laklari, soda-sovunlar, kuva-taxta degandek ko'pgina narsalarni kelganning ko'zidan yashirardi. Keraksiz taxtalar uyumi bobomning karavoti ostida, erto'laning eshigi garaj ortidagi hovuzchaning ro'parasida edi. Bu yerto'laning eshikchasi keraksiz taxtalar tashlanaverib, qayta olinaverib, allaqachonlar sinib tushgan, baralla ochiq eshik kesakisidan taxtalar turtib chiqib turardi. Yerto'laga borib taxtalarning eng yaroqsizlarini tanlay boshladim. Endigina ikkitasini sug'urib olgan edimki, ichkaridan rangi oq, katta-katta malla norlari bor ilon ko'rinib menga vishilladi-da, so'ng, behalovat taxtalar ustiga bosh qo'ydi. Bir zumga taxtadek qotdim. Shu payt hovlida gursillagan qadam tovushlari eshitildi. Garaj va karavot oralig'idagi zinali muyulishda bobom paydo bo'ldi.

–Ilonga yaqinlashma, teginma, hatto nafasi tegmasin.Qoch u yerdan! – dedilar.

–Nega? – dedim ajablanib.

– U kasallangan ilon.

Enam o'choqqa o'tinga jo'natuvdilar, deya tandirxona tomon ikkitagina taxtani ko'tarib yugurdim. Bobom vazmin qadamlar bilan tandirxonaga kirib kelganlarida, enamga bo'lgan voqea haqida gapirib ulgurgandim...

O'sha kuni kechki ovqatdan keyin ko'chaga chiqqan bobom ertasi kuni tushga yaqin bir quchoq turli xil giyohlarni ko'tarib keldilar. Giyohlarni saralab, kashnichga o'xshash giyoh bargining teng yarmini, rayhon kabi qizg'ish, ammo bargi tukli giyohning to'rtdan birini, sarimsoqdek qat-qatli giyohning faqat barg uchlarini uzib, ilonning kappa ochiq og'ziga tashladilar.

Bobom karavotga chiqib ko'rpachaga horg'in o'tirar ekanlar:

– Allohga shukur, o'lmabdi, gunohiga qolmabman, – dedilar...

U kishi har kuni uch mahal, bu kapcha ilon dardidan xalos bo'lgunga qadar giyohlar miqdorini ikki baravar ko'tarib ilonga dori tayyorlashdi. Xullasi kalom, davo muddati o'n besh kungacha davom etdi. Bu kapcha batamom tuzalgandan keyin bobomning ruxsati bilan u bilan ancha o'ynaganim hanuz yodimda...

Bobom tog'dan yarim qop turli tuman giyohlar ko'targancha kelib, enamga olovga bir paqir suv quyib qaynatishni buyurdilar-da, o'zlari yengilgina yuz-qo'llarini chayib, bir piyola choy ichib oldilar. Keyin katta alyumin tog'orani olib, unga qopdagi giyohlardan ba'zilarini tanlab, sanab, yuvib soldilar-da, ustidan avval bir siqib ko'kish, keyin bir siqim oq kukun sepdilar. Bir paqir qaynoq suvni ustidan quyib, sovuguncha tayoq bilan aralashtirib o'tirdilar. So'ng, tog'orani yerto'la eshigi yoniga qo'yib, o'zlari zinadan yuqoriga ko'tarildilar. Tanasining yarmi qorayib ketgan xoli abgor-bemor ilon yerto'ladan shoshgancha chiqib, tog'oraga yaqinlashgan vaqtda bobom qo'llari bilan yuzimni yopib, meni karavot tomonga yetakladilar.

–Bobo, kobra malhamni qanday ichayotganini tomosha qilay, – dedim yalinganmamo.

–Yo'q, – dedilar bobom.

– O'zi ikki qarich iloncha bo'lsa, qanday ichadi yarim tog'ora malhamni?

– Obbo qizim-ey, ichadi-da asta-asta, – dedilar horg'in ovozda.

Shu taxlit davo muddati taxminan ikki haftalar davom etdi. Kobra tuzalib ketgach, uni uyimiz atrofida boshqa uchratmadim.

Dilafro'z PIRIMQULOVA

1942-yilda kompyuter o'yinlarini kashf etgan Tomas Goldsmit va Istl Rey Memnon sanoat sohasida yangi era ochganliklarini bilishmagan, albatta

JAVOBINI TOPDIK

Biz uch dugona «Quvnoq tanaffus» sahifasi tashkil etilganidan buyon gazetani mazza qilib o'qimoqdamiz. Ayniqsa, 44-sondagi qashqadaryolik tengdoshimiz Nilufar Xolmatovaning chizgan suratlarini ko'rib, havasimiz keldi. Ular orasidagi suratdan sevimli san'atkorimiz Nargiza Abdullayevani darhol tanidik. Chunki Nilufar juda rasm chizishga usta ekan. Unga omad tilaymiz.

Jayrona SULTONOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
33-maktab o'quvchisi

TAHRIRIYATDAN:

Gazetamizning avvalgi sonlaridan birida e'lon qilingan Nilufar Xolmatovaning rasm-topishmog'iga Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 261-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi Risolat Majidova hamda Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 33-maktab o'quvchisi Jayrona Sultonova birinchilardan bo'lib to'g'ri javob yo'llashdi. Ular tengdoshlari Nilufar aktrisa Nargiza Abdullayevaning siymosini aks ettirishga intilganini darhol payqashibdi. Ziyrak, hozirjavob o'quvchilarimizni qutlaymiz!

G'oliblarga atalgan sirli sovg'amizni esa ular tahsil olayotgan maktab manziliga yuboramiz.

MAGUL ISHONCHLI QO'LLARDA

Odamlar bilan tirband bekatda turgandim. Jajjigina mushukchani oppoq shapkasiga o'rab olib, boshlarini silayotgan ikki qizaloq e'tiborimni tortdi. Ayanchli miyovlayotgan mushukchaning tanasiga iliqlik yugurdi chog'i, tinchlanib, ko'zlarini yumdi.

– Biz uni ko'chadan topib oldik,– deyishdi qizlar. – Sovuqdan dir-dir titrab turardi, onasini yo'qotib qo'ygan bo'lsa kerak. O'tkinchilar unga e'tibor berishmas, hatto bir burda non bilan siylashmasdi. Biz uni ovqatlantirdik. Keyin u ortimizdan ergashdi. Tashlab ketishga ko'zimiz qiymadi, uyimizga olib ketishga qaror qildik. Uydagilar yo'q deyishmaydi, chunki jonivorlarni juda yaxshi ko'rishadi...

Tramvay kutish asnosida mehribon qizchalar bilan tanishib oldim. Gulruh va Mahbuba ismli ikki dugona poytaxtdagi 179-maktabning 4-«B» sinfida o'qisharkan. Ular mushukchani Magul deya nomlashga ham ulgurishibdi.

Shu payt tramvay kelib qoldi, qizchalarga bir bolakay joy bo'shatdi va mushukchaning boshini mehr bilan silab qo'ydi. Magul ham beozorgina miyovlab qo'ydi. Kim bilsin, balki o'z tilida bolakayga rahmat aytayotgandir.

Bolalar, Gulruh bilan Mahbubaning o'rnida siz bo'lib qolsangiz, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz? Beozor, himoyasiz, zabonsiz jonivorlarga munosabatingiz haqidagi hikoyalaringizni tengdoshlaringiz katta tanaffusda miriqib o'qishadi.

Flora FAXRUTDINOVA

KOMPYUTER O'YINLARINI KIM YARATGAN?

2007-yilning statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha kompyuter o'yinlari bozori 19 foizga oshgan. 1942-yilda kompyuter o'yinlarini kashf etgan Tomas Goldsmit va Istl Rey Memnon sanoat sohasida yangi era ochganliklarini bilishmagan, albatta. IDS kompaniyasi tarqatgan xabarlarga ko'ra, Geymerlar, ya'ni kompyuter o'yinlarining ashaddiy ishqibozlari tobora ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda sayyoramizda 300 mln. kishi muntazam ravishda kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul. Yana 15 mln. fanat esa o'yinda qanday qilib kompyuterni yutish haqida bosh qotirishyapti.

Ruhshunoslar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kompyuter o'yinlari ishqibozlari o'yin davomida o'zlarini xuddi haqiqiy qahramonlardek his etadilar. Buning yomon tomoni yo'q, albatta. Lekin bu kabi dasturlar ishqiboz ruhiyatida tajovuzkorlik, hujumkorlik tabiatini shakllantiradi. Bugun kinofilmlardan-da ustunroq mavqega ega bo'lib olgan kompyuter o'yinlarining ta'sir darajasi nihoyatda yuqori pog'onalarda. Birgina «Disney» kompaniyasi 2008-yilning o'zida yangi kompyuter o'yinlarini yaratish uchun 180 mln. dollar sarflashini bildirgan. «Time Warner» esa bunday maqsadlar uchun 500 mln. dollar miqdorida mablag' sarflagan. Xollivud ishbilarmon va tadbirkorlari ko'p sonli geymerlar e'tiborini tortish uchun kompyuter o'yinlari asosida ko'plab filmlar yaratishyapti. Lekin, baribir, ixtiyoriy telbalar sonining ortishiga xalal berolmayapti.

Sadoqat DADAYEVA tayyorladi

O'JAR SINGLIM



Jajji singlim Dilfuzaning,
Ajoyib bir odati bor.
Nimaniki qo'lga olsam,
U ham shuni so'rar darhol.
O'qiyotgan kitobimni,
– Men o'qiyman, bering, – deydi.
Olma yesam, shaftolisin
Uloqtirib, olma yeydi.
Oyijonim ikkimizga,
Keltirdilar qo'g'irchoq.
Biri menga juda yoqdi,
Ko'zlari go'yo munchoq.
Uni olsam, singlim darhol,
«Menga» deydi, bilaman.
Shuning uchun uni avrab,
Men bir hiyla qilaman:
Yoqmaganin qo'lga olib,
Maqtay ketdim chunonam.
Kulib turardilar hiylam,
Tushunib qolgan onam.
–Yo'q, meniki, – deya singlim,
Qo'g'irchoqni olib qo'ydi.
Ikkinchisin jahl bilan,
Quchog'imga solib qo'ydi.

FERUZA

Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 10-o'rta maktabning 6-«E» sinf o'quvchisi Muzaffar Otaboyev chizib yuborgan rasmda qaysi ertak qahramonlarini ko'ryapsiz?

Xandalar

O'qituvchi:

– Ko'rsichqon bir kunda o'z og'irligidan ikki barobar ko'p ovqat yeydi.

O'quvchi:

– Iye, ko'rsichqon o'z og'irligini qayerdan biladi?

* * *

Botir uyga kichkina toshbaqa olib kelib, parvarishlay boshladi.

– Qo'yib yubor, nima qilasan bechorani qiynab, – dedi onasi.

– Toshbaqalar ikki yuz yil yashaydi, deyishadi. Sinab ko'raylik-chi, shu gap to'g'rimikan, – javob qildi Botirjon.

Hamidjon POZILOV to'plagan

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

Oxirgi uchburchak ichidagi sonni toping.



Kub raqamni toping.



Tinch okeanining o'zida ham daryo borligiga nima deysiz?

(Boshi 4-betda)

BAYRAMONA TUS OLDI



Xuddi shunday kitobxonlar bayrami Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazida bo'lib o'tdi. Unda viloyatdagi soha xodimlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, noshirlar va ijodkorlar ishtirok etdi. Ishtirokchilar «O'zbekiston», «O'qituvchi», «G'afur G'ulom» nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uylari, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, «Ma'naviyat» nashriyoti, «Sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasida nashr qilingan yangi darsliklar namunalari bilan tanishdilar.

«O'zbekiston» NMIU Bosh muharriri Ibodullo Shoymardonov, Bosh muharriri o'rinbosari Jabbor Razzoqov kitobni yaratish, nashrga tayyorlashning o'ziga yarasha mashaqqatlari xususida o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar.

Bayramona tus olgan ushbu ko'rgazma kitobsevarlar o'rtasida qizg'in suhbatga, munozara va muhokamaga aylanib ketdi.



Keyingi yillarda «O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etilayotgan qoraqalpoq tilidagi darsliklar nafaqat mazmun-mundarijasi va dizayni, balki matbaa ijrosi ham tubdan o'zgarganligi ta'kidlab o'tildi.

Ayniqsa, Nukus shahridagi 2-maktab-internatida hamda Termiz shahridagi Surxondaryo viloyati axborot kutubxona markazida davom etgan kitobxonlar bayrami o'quvchilarga olam-olam zavq berdi.

Shuningdek, bayramda O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 16 yilligiga bag'ishlangan Baxtimiz qomusiga oid kitoblar ham namoyish etildi.

Joylarda bo'lib o'tayotgan bayram kitobxonlarni kitobni sevishga, ardoqlashga va do'st tutinishga o'rgatdi.



Yong'in xavfsizligi oyligi

OLOV DILIMIZNI ILITSIN

Sobir Rahimov tumani, Sag'bon 11-tor ko'chasi, 1-uyda sodir bo'lgan yong'inda 80 kv.m atrofida uy ichlari, tom qismlari zarar ko'rgan. Shu tumanning Gulzor ko'chasi, To'ychi ota fermer xo'jaligida sodir bo'lgan yong'inda fermer xo'jaligining 100 kv.m molxonasi, unda saqlanayotgan somonlari yonib, zarar ko'rdi. Agarda biz oddiy yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilsak, uyimizda yonayotgan olov bizga faqat do'st sifatida xizmat qiladi.

Bolalar bizning kelajagimiz, ularni asrab-avaylash bizning burchimizdir. Ulardan nasihatimizni, hayot uchun kerakli saboqlarimizni hech qachon ayamaylik.

Otabek INOG'OMOV,
12- harbiylashgan yong'in xavfsizligi komandiri, mayor

UY EGASI SABABCHI

Doimiy ravishda qo'ldan kelgancha yon-atrofingizdagilarni ham hushyorlikka chaqirishingiz nur ustiga a'lo nurdir. Lekin oramizda shunday insonlar borki, ehtiyotkorlikni unutib qo'yishmoqda va bu harakatlari bilan ko'pchilikni aziyat chekishiga sabab bo'lishmoqda. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 7-dahada istiqomat qiluvchi K.Pakning xonadonida sodir bo'lgan yong'inga elektr payvandlash ishlarida yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi uning o'limiga sabab bo'ldi.

Aziz o'quvchilar va ota-onalar! O'z umrimizni, shirin jonimizni barbod aylab, mol-u davlatimizni kulini ko'kka sovurilishiga hech yo'l qo'ymaylik.

Ulug'bek YO'LDOSHEV,
yong'in xavfsizligi bo'limi tezkor navbatchisi, kapitan



ENG QISQA...

Eng qisqa daryo, ya'ni uzunligi bor-yo'g'i 17,7 metrlik daryo borligiga ishonasizmi? Ishonishingizga to'g'ri keladi. AQSHning Montano shtatidagi Greyt-Fols degan manzildan oqib o'tuvchi va Missuri daryosiga quyiluvchi Pou-River daryosining bir irmog'i aynan shuncha metr uzunlikka ega.

OKEANDAGI DARYO

Tinch okeanining o'zida ham daryo borligiga nima deysiz? Aniqrog'i, ekvator yaqinidagi okean yuzasidan 400 metr chuqurlikda Kromvella deb nom olgan oqim mavjud. U sharqqa qarab oqadi. Ushbu g'ayritabiiy daryoning eni 300 kilometrni tashkil etgani holda uzunligi 650 kilometrga yetadi.

FOTOSURATLAR TANLOVIGA



Handonabonu, jonim qizim, Ortimdagi qutlug' izim...

2003-2007-yillar mobaynida mamlakatimizda 715 ta bolalar sport majmualari bunyod etildi. Shulardan 583 tasi qishloq joylarida qad rostladi.

OMADLI SPORTCHILAR

Husanboy AVVALOV olgan surat

Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi 31-umumta'lim maktabida ham o'quvchilarning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan, zamonaviy sport anjomlari bilan jihozlangan sport zali bolajonlar ixtiyorida. Bu maktabda tahsil olayotgan o'g'il-qizlarning ustozlar borasida ham omadlari chopgan. Ularga 32 yillik tajribaga ega ustoz Yo'ldosh aka Fayziyev dars beradi. Yosh sportchilarning tuman, viloyat miqyosidagi qo'l to'pi va yugurish musobaqalarida doimo oldingi o'rinlarni egallab kelishlari ham bejiz emas.

Tong YULDUZI
Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi: Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi: Ma'mura MADRAHIMOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom: Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 20975
Buyurtma N: J 6416